

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

**MAMLAKATDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini
takomillashtirish 3

Ахмедова Нафиса Амирддин кизи

Совершенствование теоретической основы обеспечения
продовольственной безопасности страны..... 29

Axmedova Nafisa Amirddin kizi

Improving the theoretical basis of ensuring food security in the country..... 57

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

MAMLAKATDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTORERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt3953 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Topildiyev Soxibjon Raximjonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: Gafurov Ubaydullo Vaxabovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abulqosimov Xasan Pirmazarovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30 01.2021.116.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "15" 10 soat 148 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (57/raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "30 09" kuni tarqatildi.
(2024-yil "30 09" dagi 57 raqamli reestr bayonnomasi)



S.K.Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.D.Xajiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, i.f.d., professor

N.A.Xoshimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi
o'rinbosari, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiya va raqobatlashuv jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida barcha mamlakatlar oldida turgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash vazifasining dolzarbligi oshib bormoqda. BMT ham oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlamoqda. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir emas. Shu bois bunday holatda oziq-ovqat sanoat korxonalariga xomashyo yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash muhim sanaladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, "hozirda jahon aholisining 815 mln. nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqmoqda"¹. Ushbu holat oziq-ovqat tanqisligi sharoitida belgilangan ratsionlar asosida iste'molni tartibga solishning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Jahonda tobora jadallashib borayotgan iqtisodiy taraqqiyotni resurslar bilan ta'minlash muammosi keskinlashuvi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dunyo aholisining o'sib boruvchi daromadlariga munosib ravishda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga global talabning o'sishi, aholining o'sishi, urbanizatsiya va yuqori daromadlar bilan bog'liq ovqatlanishdagi o'zgarishlarning oziq-ovqat tizimiga ta'siri, nisbatan ko'proq resurslarni talab qiluvchi oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi, ularni qondirish uchun hosildorlik tendensiyalarining muvofiqlik darajasi, oziq-ovqat ratsionlarida belgilangan me'yorlarga amal qilish talablarining o'zgarishi, hozirgi murakkab sharoitda "oziq-ovqat tenglamasi", oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti, ijtimoiy tenglik, iste'mol talabi, iqtisodiy va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni tiklash mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy yechimlarini topish bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini tartibga solish borasidagi islohotlarning asosiy maqsadi "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazishdan iborat. Xususan, tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini

¹ JRC Science and Policy Reports <file:///C:/Users/user/Downloads/lbna27252enn.pdf>

1,5 baravar oshirish”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlari keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish va tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari va uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlari J.Addison, G.Bekker, A.Brittain, L.Emmeridj, D.Fridman, P.Samuelson, S.Bryu, K.Makkonnell va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan³.

MDH mamlakatlari olimlari A.G.Efendiev, I.A.Bolotina, N.Baryshnikov, Ye.Cherdanseva, A.V.Chayanov, V.Demyanenko, N.P.Ketova, Ye.Serova, V.Ya.Uzun, R.I.Shniper, A.Yu.Yudanov, A.K.Yasterebov, A.Arkipov, N.N.Vashekin, Ye.N.Veduta, A.M.Jondarev, V.K.Senchagov va boshqalar

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

³ Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001,-P. 19.; Becker G/ Investment in Human Capital // The Journal of Political Economy. 1962.№10 P.42; Brittain A. Full employment in industrialized countries.// Intern. Labour . rev. – Geneve, 1997. –Vol. 137, №3, -P. 293.; Emmerij L. The employment problem and international economy. //Ibid. – 1994.-Vol. 130, №4. - P. 458.; Freedman D. Employment and unemployment in the 1980's : Economic dilemmas and socio – political changes. //Intern. Labour. Rev. – Geneve, 1984. – Vol. 123, №5. - с.567.; Самуэльсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.; Брю С., Макконнелл К. Экономика: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.

tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan⁴.

O'zbekistonda agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Abdug'aniev, V.R.Abdullaev, A.F.Xurramov, Ch.Murodov, F.Nazarova, F.T.Egamberdiev, A.S.Altiev, D.Tadjibaeva, I.B.Rustamov, B.O.Dusmatov, Ch.P.Xo'jageldiev, A.Abduvasiqov, F.B.Aminov, O.S.Jumaev, A.S.Raxmatullaev, A.X.Toshqulov, Q.I.Qunduzova, G.N.Maxmudova, H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, A.A.Isajanov, S.R.Topildiev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan⁵. Biroq mamlakatda oziq-

⁴ Эфендиев А.Г., Болотина И.А. Современное российское село. На переломе эпох и реформ. Опыт институционального анализа // Мир России. 2002, №4. -с.83, Барышников Н., Черданцева Е.. Воспроизводство в сельском хозяйстве: приоритеты и перспективы. Монография. Publisher Litres. ISBN 9785040084814, 2017 -С 203. Чайнов А. В. Основные идеи и формы организации крестьянской кооперации. М.: Наука, 1991. с.454.; Демьяненко В., Рылко Д. Проблемы формирования и функционирования рынка сельскохозяйственных земель. - М.: Сборник «Год планеты», 1998. - с.110; Кетова Н.П. Равновесии рынка земли и недвижимости // Макроэкономика. Учебно-методическое пособие. - М.: Ростов н/Д, 1997. - с. 56; Серова Е. АЦ АПЭ, 2000 (<http://management.edu.ru/db/msg/128017.html>); Узин В.Я. Приватизация земли и реорганизация сельскохозяйственных предприятий, идеи, механизмы, результаты, проблемы // Реорганизация сельскохозяйственных предприятий: их эффективность и устойчивое развитие материалы семинара. Голицыно. - М., 1999. - с. 76; Шнипер Р.И., Новоселов А.С. Региональные проблемы рынковедения: Экономический аспект. - Новосибирск, ВО «Наука», 1993. - с. 342; Юданов А.Ю., Аграрный рынок России // Микроэкономика теория и российская практика. -М.: ИТД «Кно Рус», 2002. - с. 132; Ястребова О.К. Введение в агробизнес. - М.: Изд. Московского Университета, 1994. - с.112. Архипов А., Экономическая безопасность: оценка, проблемы способы обеспечения // Вопросы экономики, №2, 1994. -с70-80; Вашекин Н.П., Экономическая безопасность: институциональный подход. —М., 2000 .- с. 370 ; Ведута Е.Н. Стратегия экономическая политика государства. -М.: Акад. Проект, 2004. - с.300.; Жондарев А.М., Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник.. МИ.Я: изд. РАГС, 2001. —с.459; Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие / Книга четвертая. Ин-т Экономики РАН. -М.: ЗАО Финстатинформ, 2002. - с.128.

⁵ Абдуганиев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарелик. - Т.: ТДИУ, 2004. – 304 б.; Абдуллаев В.Р. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида аграр секторнинг экспорт салоҳиятини юксалтириш (пахта толаси экспорти мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. – 45 б.; Хуррамов А.Ф. Ўтиш иқтисодиётини муносабатлар ва уларнинг аграр соҳадаги хусусиятлари. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ, 2005. – 42 б., Муроदov Ч. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида бозор инфратузилмасининг ривожланиши (аграр сектор мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. - 40.; Назарова Ф. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида Ўзбекистон аграр секторини ривожлантириш истикболлари. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. – 42 б.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики. Автореф. дис...докт. экон. наук. - Т.: НУУз, 2003. – 40 с.; Алтиев А.С. Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини тартибга солиш муаммолари. – Т.: Фан, 2018. Монография -274 б.;Таджибаева Д. Миллий иқтисодиётда институционал ўзгаришлар самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. (Ўзбекистон Республикаси аграр соҳасида мисолида) Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзРИИВА, 2020. – 81 б.; Рустамова И.Б. Аграр соҳада инновацион жараёнлар самарадорлигини оширишнинг илмий услубий асослари. авт. ... и.ф.д. Т.: 2020. - 77 б.; Дусматов Б.О. Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аграсаноат ишлаб чиқаришда инновацион инфратузилмани ривожлантириш. авт. ... и.ф.д. Т.:2022,- 53 б.; Хўжагелдиев Ч.П. Суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини оширишни рағбатлантириш. авт. ... и.ф.д. Т.: 2022,-56 б. Абдувосиқов А.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида Тошкент вилояти аграр ишлаб чиқаришида таркибий ўзгаришлар самарадорлиги. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ, 2005. – 20 б.; Аминов Ф.Б. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг худудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти мисолида) Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ 2004. – 20 б.; Жумаев О.С. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари улгуржи бозорлари фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асослари: Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2005. – 19 б.; Раҳматуллаев А.С. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигида ер муносабатларини такомиллаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида). Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2002. – 20 б.; Тошқулов А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. Автореф. - Т.: “IMPRESS MEDIA” МЧЖ, 2021. – 79 б., Қундузова К.И. Турли хўжалик юритиш шаклидаги қишлоқ хўжалиги корхоналарида экинларни жойлаштиришни оптималлаштириш орқали ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш истикболлари (Фарғона

ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini aynan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi muammolar umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid ilmiy nazariyalarni tadqiq etish asosida mualliflik yondashuvini ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziq-ovqat yetishmovchiligini bartaraf etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish;

xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning bozor va davlat boshqaruvi usullarining o'zaro samarali yo'llarini aniqlash;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda suv resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini aniqlash;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va klasterlashtirish tajribasini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash;

qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi soha va tarmoqlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, hodisalarga uzviylikda yondashish, statistik tahlil, matematik guruhlash, grafik tasvirlash, kompleks yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, segmentlash va prognozlash usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "oziq-ovqat xavfsizligi" kategoriyasining iqtisodiy mazmuni aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash

вилояти мисолида). Иқт. фан. ном. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2005. – 22 б.; Махмудова Г.Н. Аграр соҳани инвестициялаш самарадорлигини ошириш йўналишлари. и. ф. н. илмий дар. ол. учун дисс. автореферати. - Т.: ЎзРБМА, 2010. – 21 б.; Абулкосимов Ҳ.П Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.; Академија, 2012. 351 б. Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2017,-152 б.; Исажонов А.А. Конкуренентоспособность национальной экономики: мировой опыт и современные тенденции развития // Экономический вестник Узбекистана, 1999. №6; с.5.; Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - Т.: «Tipograff» MCHJ. 2023, -70 б.

jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta'minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

aholining ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari asosida muayyan davrdagi ehtiyoji va amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan aniqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqishda bevosita mutassadi tashkilotlar bilan mahalliy hokimiyat va mahallaning o'zaro uyg'un, faol va izchil faoliyatini ta'minlash taklifi asoslangan;

“nisbiy ustunlik”, “virtual suv”, “xalqaro savdo”, “ekologik iqtisodiyot” kabi nazariyalarga ko'ra asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha yillik suv sarfi me'yorlari va energiya qiymatlaridan kelib chiqib, suv resurslari taqchilligi kuchayishi sharoitida suvni nisbatan ko'p talab qiluvchi ekinlar va oziq-ovqat mahsulotlarini hamkor qo'shni davlatlarda yetishtirish hamda uning xomashyo va hosilini sotib (yoki boshqa mahsulotga ayirboshlab) olish orqali manfaatli kelishuvga erishish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida agrar sohani 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziq-ovqat yetishmovchiligini bartaraf etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va klasterlashtirish tajribasini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari asoslangan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash tizimi, oziq-ovqat sanoatida Global GAP, ISO 2200 HACCP⁶ xalqaro sifat standartlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, ilmiy qarashlar, usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, monografik tahlillardan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma'lumotlaridan va boshqa amaliy ma'lumotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan nazariy-uslubiy taklif va tavsiyalardan oziq-ovqat xavfsizlinini ta'minlashni mexanizmini takomillashtirish, oziq-ovqat

⁶ Global G.A.P. (Good Agricultural Practice- Qishloq xo'jaligini yaxshilash amaliyoti) , HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Point- nazorat nuqtalari va xavf -xatarlar tahlili), ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi

xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda nazariy-metodologik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan amaliy taklif va tavsiyalardan respublikada ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlar ("yo'l xaritalari")ni tayyorlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Tarmoqlar iqtisodiyoti", "Iqtisodiyot", "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish", "Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonlarida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "oziq-ovqat xavfsizligi" kategoriyasining iqtisodiy mazmunini aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta'minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlarining "Iqtisodiyot" (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy siyosatga kirish" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda "Iqtisodiyot" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, amaliyot xodimlarining aholining oziq-ovqat mahsulotlarini kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta'minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "oziq-ovqat xavfsizligi" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlanishiga hissa qo'shgan;

aholining ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari asosida muayyan davrdagi ehtiyoji va amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan aniqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqishda bevosita mutassadi tashkilotlar bilan mahalliy hokimiyat va mahallaning o'zaro uyg'un, faol va izchil faoliyatini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"ning "Sog'lom

iste'mol madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish" chora-tadbirini belgilashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida respublika aholisining iste'mol ratsionini tartibga solish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoni yaratilgan;

"nisbiy ustunlik", "virtual suv", "xalqaro savdo", "ekologik iqtisodiyot" kabi nazariyalarga ko'ra asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha yillik suv sarfi me'yorlari va energiya qiymatlaridan kelib chiqib, suv resurslari taqchilligi kuchayishi sharoitida suvni nisbatan ko'p talab qiluvchi ekinlar va oziq-ovqat mahsulotlarini hamkor qo'shni davlatlarda yetishtirish hamda uning xomashyo va hosilini sotib (yoki boshqa mahsulotga ayirboshlab) olish orqali manfaatli kelishuvga erishish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoniga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tomonlama hamkorlikda foydalanishga erishilgan;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida agrar sohani 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida uzoq muddatli istiqbolda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari dissertant e'lon qilgan 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati, maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “Global iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning konseptual asoslari” deb nomlangan birinchi bobida “Oziq-ovqat xavfsizligi”ning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, zarurligi, xususiyatlari, mamlakatda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ratsional ovqatlanish normativlari o'rtasidagi nisbiy tahlili to'g'risidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi va xorij tajribasi tahlili amalga oshirilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini tadqiq etish bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, bu ko'proq klassik maktab namoyondalarining XVIII asr va XIX asr boshlaridagi qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga oid asosiy nazariyalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Jumladan, Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish” (1776-y.) nomli asarida ixtisoslashuv va mehnat taqsimotining qishloq xo'jaligidagi hosildorlikni oshirishga ta'siri⁷; David Rikardoning “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari” (1817-y.) nomli asarida ijara nazariyasi, daromadning kamayishi qonuni, qiyosiy ustunlik nazariyalari orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish taklifi⁸; Tomas Maltusning “Aholi tamoyili bo'yicha insho” (1798-y.) nomli asarida “nufus qonuni” orqali ilgari surilgan qishloq xo'jaligiga oid fikrlari⁹; Jon Styuart Millning “Siyosiy iqtisod asoslari” (1848-y.) nomli asarida yerga egalik qilishning qishloq xo'jaligi hosildorligiga ta'siri¹⁰ va boshqalarni keltirish mumkin.

Dissertatsiya ishida “oziq-ovqat xavfsizligi” kategoriyasining shakllanishi va rivojlanish evolyutsiyasiga nisbatan turli ilmiy qarashlar tahlil qilingan, tizimlashtirilgan va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi xo'jalik yuritish shakllari va rivojlanish darajasiga qarab doimiy ravishda takomillashib borishi, ularning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi bozor iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida aks etishi tahlil etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining yagona ta'rifi mavjud bo'lmay, ko'plab tadqiqotchilar “oziq-ovqat mustaqilligi”, “oziq-ovqat muammosi”, “oziq-ovqat ta'minoti” kabi talqinlarda o'zlarining tuzatishlari va qo'shimchalarini kiritib kelmoqdalar. Shu jihatdan, oziq-ovqat xavfsizligi nazariyasi hozirgacha to'liq yoritib berilmagan hamda uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud (1-jadval).

⁷ <https://www.econlib.org/library/topics/highschool/divisionoflaborspecialization.html>

⁸ McDonald, John. (2018). Mr. Ricardo's Theory of Land Rent. Journal of Real Estate Practice and Education. 21. 1-15. 10.1080/10835547.2018.12091774.

⁹ https://www.economicsonline.co.uk/managing_the_economy/what-is-the-malthusian-theory-of-population.html/

¹⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Land_Tenure_Reform_Association

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasiga berilgan ta'riflar¹¹

Mualliflar	Ta'rifning mazmuni	E'tiborli yoki munozarali jihati
Ye.V.Serova ¹²	Oziq-ovqat xavfsizligi me'yoriy hayot tarzini o'tkazish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholining asosiy qismini ta'minlash darajasini bildiradi.	1) me'yoriy hayot tarzi tushunchasi mavhum hisoblanadi; 2) barcha aholini emas, balki aholining asosiy qismini ta'minlash munozarali hisoblanadi.
V.S.Balabanov, Ye.N.Borisenko ¹³	Oziq-ovqat xavfsizligi – ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sog'liq uchun bezararligini ta'minlagan holda mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan talabini muayyan davrda iste'mol va zaxiralarni yaratish asosida qondirilishini kafolatlashdir.	Mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan talabi tushunchasi aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabi tushunchasini aynan ifodalay olmaydi.
E.B.Naydanova ¹⁴	Oziq-ovqat xavfsizligi – davlat tomonidan aholining joriy va favqulodda ehtiyojlarini mamlakat ichidagi ishlab chiqarish resurslari hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlash qobiliyati.	Aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini mamlakat ichidagi ishlab chiqarish resurslari hisobidan ta'minlanishi munozarali hisoblanadi.
H.P.Abulqosimov ¹⁵	Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi.	1) aholining barcha emas, balki asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashi e'tiborga molik hisoblanadi; 2) oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lish e'tiborga molik hisoblanadi.
T.S.Rasulov ¹⁶	Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir.	Ta'rif umumiy tavsif kasb etadi.
D.N.Saidova ¹⁷	Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishidir.	Yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishi e'tiborga molik hisoblanadi.
Muallif ta'rifi	Oziq-ovqat xavfsizligi – aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash imkonining ta'minlanishidir.	1) aholining faol hayot kechirishini ta'minlash; 2) oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish; 3) har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash; 4) mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash imkonini ta'minlash e'tiborga molik hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi nazariy qarashlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, oziq-ovqat xavfsizligi – aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹² Серова Е.В. К вопросу о продовольственной безопасности. – <http://www.iet.ru/>.

¹³ Балабанов В.С., Борисенко Е.Н. Продовольственной безопасности: международные и внутренние аспекты. – М.: Экономика, 2002. – С. 22

¹⁴ Найданова Э.Б. Методологические подходы к определению продовольственной безопасности как генеральной цели аграрной политики. // Современные проблемы науки и образования, 2015. – № 1 – 6 с.

¹⁵ Абулқосимов Х. П., Абулқосимов М.Х. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш омиллари. – Т.: Иқтисод ва молия, 2015. 2-сон. - 20 б.

¹⁶ Расулов Т.С. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўналишлари.// Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари. – Т., 2016. – 106.

¹⁷ Саидова Д.Н. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: УзФА Асосий кутубхонаси босмахонаси нашриёти, 2016. - 258 бет.

tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash imkonining ta'minlanishidir.

Aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish imkoniga erishish uchun mehnatga layoqatli aholi uchun tavsiya qilingan ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlarini belgilash muhim hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

Mehnatga layoqatli aholi uchun tavsiya qilingan ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari (kilogramm bir yilda)¹⁸


Mahsulotlar	Erkaklar		Ayollar		
	(18-59)	60≤	(18-54)	Homilador va emizikli	55≤
Un va un mahsulotlari	9,1	7,3	7,3	7,3	7,3
Guruch	18	14	16	18	14
Makaronlar	18	10	14	73	54
Kartoshka	80	73	73	80	54
Bodring	18	14	18	18	14
Pomidor	18	14	18	18	14
Sabzi	18	18	18	21	18
Piyoz	14	10	14	18	14
Boshqa sabzavotlar	21	21	21	21	20
Poliz mahsulotlari	18	14	18	18	14
Mevalar	91	91	91	91	80
Mol go'shti	21	18	21	25	18
Qo'y go'shti	10	7,3	7,3	10	7,3
Parranda	2,5	2,1	2,1	2,5	2,1
Baliq	12	10	12	12	10
Baliq mahsulotlari	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
Sut	14	14	14	18	14
Tuxum (dona)	365	365	365	365	365
Shakar	10,9	7,3	7,3	10,9	7,3
O'simlik moyi	12,7	10,9	9,1	12,7	9,1
Yodlangan tuz	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8
Choy (grammda)	730	730	730	730	730

2-jadvaldan ko'rish mumkinki, 18-59 yoshdagi erkaklar qo'shimcha iste'mol mahsulotlaridan o'rtacha un va un mahsulotlarini – 9,1 kilogramm, mol go'shti -21 kilogramm, sut - 14 litr, makaronlar - 18 kilogramm, shakar - 10 kilogramm, o'simlik moyi - 10 litr, kartoshka - 80 kilogramm, choy - 1,0 kilogramm, yodlangan tuz - 1,8 kilogramm iste'mol qilishi lozim bo'lsa, 18-54 yoshgacha bo'lgan ayollar, homilador va emizikli ayollar qo'shimcha iste'mol mahsulotlari o'rtacha un va un mahsulotlarini - 7,3 kilogramm, mol go'shti - 21 kilogramm, sut - 14 litr, makaronlar - 14 kilogramm, shakar - 7,3 kilogramm, o'simlik moyi - 9 litr, kartoshka - 73 kilogram, choy - 730 gramm, yodlangan tuz - 1,8 kilogramm iste'mol qilishi zarur hisoblanadi.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси аҳолиснинг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илоvasи асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining yoshi, jinsi va kasbiy faoliyati guruhlari uchun sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlashga qaratilgan o‘rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari SanQvaN № 0007-20 sonli sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarida ratsional ovqatlanish normativlari inson mehnatining og‘irligi va kasb guruhlari asosida, mamlakatimizning iqlimi va ovqatlanishdagi milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, quvvatga va asosiy oziq-ovqat moddalariga bo‘lgan fiziologik ehtiyojini qondirishga qaratilgan 5 ta guruh (asosan, aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar; yengil mehnat bilan shug‘ullanuvchilar; o‘rta og‘irliklardagi mehnat qiluvchilar; og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchi ishchilar; o‘ta og‘ir jismoniy mehnat, juda yuqori jismoniy faollik bilan ishlovchilar)ga bo‘linadi.

Fikrimizcha, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash va iste‘mol ratsionini tartibga solish, oziq-ovqat turi va sifati jihatidan talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish uchun tadqiqot ishida quyidagi mexanizm tavsiya etilgan (1-rasm).



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmi¹⁹.

1-rasmda ifodalangan mexanizmning asosiy qoida va tamoyillari sifatida quyidagilarni ta‘kidlash mumkin:

1) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholiga yetkazishga mas‘ul idora va tashkilotlar (Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va h.k.), Sog‘liqni saqlash vazirligi (jumladan, Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati) va uning hududiy boshqarmalari bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat va mahallaning o‘zaro uyg‘un, faol va izchil faoliyatini ta‘minlash;

2) oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aniqlashda asosiy e‘tiborni mehnatning og‘irligi va kasb guruhlari, iqlim va ovqatlanish milliy xususiyatlari, quvvatga va

¹⁹ Муаллиф ишланмаси асосида тузилган.

asosiy oziq-ovqat moddalariga fiziologik ehtiyoj, aholining jinsiy, yosh tarkibi va alohida xususiyatlari kabi unsurlardan tarkib topuvchi ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlariga qaratish;

3) aholining muayyan davrdagi oziq-ovqatga ehtiyoji va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni aniqlashda oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati bo'yicha yondashish;

4) oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmining asosiy maqsadi sifatida nafaqat oziq-ovqatga ehtiyoj va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, balki oziq-ovqat iste'molini miqdor va sifat jihatdan takomillashtirishni belgilash.

Dissertatsiya ishida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning xorij tajribasi Xitoy, AQSH, Kanada, Meksika, Hindiston, Braziliya, Rossiya singari mamlakatlar misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotlar agrar sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlari mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, AQSH, Kanada, Meksika mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi darajasining uzoq davrdagi tendensiyalari tahlil qilingan (3-jadval).

3-jadval

AQSh, Kanada, Meksikada oziq-ovqat xavfsizligi darajasi (foizda)²⁰

Mamlakat	2014-2016-yy.	2016-2018-yy.	2018-2020-yy.	O'zgarishi (+,-)
AQSH	10,5	8,9	8,0	-2,5 f.k.
Kanada	5,0	5,0	5,8	-0,8 f.k.
Meksika	25,6	23,0	26,1	+0,5 f.k.

3-jadvaldan ko'rinadiki, 2014-2020-yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasi AQSH va Kanadada kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Agar oziq-ovqat mahsulotlarining 85 foizi ishlab chiqarilsa va iste'molning kamida 17 foizi zaxira sifatida saqlansa, ushbu mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan hisoblanadi.

Jahon tajribasiga ko'ra, davlatning agrar siyosati quyidagi faoliyat turlarida ta'sir ko'rsatadi:

intellektual mulkni patentlashtirish, litsenziyalash, xalqaro kelishuvlar orqali davlat tomonidan himoya qiladi;

maxsus ilmiy-texnika yutuqlarini qishloq xo'jalik amaliyotiga joriy qilishni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil qiladi;

ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotini sifati, saqlash, transportirovka, qo'llanilayotgan kimyoviy va veterinariya preparatlari va laboratoriya ishlarini olib borishni tartibga solishni nazoratga oladi.

Dissertatsiya ishining **“Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy-institutsional asoslari aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanishning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'siri va muammolarining tahlili va hozirgi holati baholangan.

Tadqiqotchining fikricha, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, boshqarish, mahalliy organlar bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi subyektlarining yerdan foydalanishini yaxshilash, tuproq

²⁰ World food and agriculture statistical yearbook, Food and Agriculture organization of the United Nations, 2021. P.258-262

unumdorligini saqlash, unimdorligini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy jihatdan asoslangan aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish davr talabiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoniga binoan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi”da qator muhim maqsad va vazifalar belgilab berildi (2-rasm).

1-maqsad. O‘zbekistonning barqaror qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimini barcha uchun yetarli darajada oziq-ovqat mavjud bo‘lishini ta’minlash maqsadida mustahkamlash:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash;
- oziq-ovqat ta’minoti zanjirida mahsulotlar yo‘qotilishi va isrofgarchiligini kamaytirish;
- tabiiy resurslar, yer, suv va oziq-ovqat zaxiralarini barqaror boshqarish;
- transchegaraviy hayvonlar kasalliklari va o‘simliklar zararkunandalariga qarshi kurashish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligini barqaror oshirish uchun qishloq joylarda maslahat-axborot tizimlarini va bilimlarni oshirish xizmatlarini takomillashtirish.

2-maqsad. Har bir insonda oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyati bo‘lishi uchun inklyuziv, samarali va bog‘langan bozorlarni yaratish:

- kichik xo‘jaliklarning qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat qiymat zanjirlariga kirish imkoniyatini yaxshilash;
- qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish uchun bozor raqobatini va bog‘liqligini kuchaytirish;
- ichki bozorlarning xalqaro savdo tizimi bilan bog‘liqligini mustahkamlash.

3-maqsad. Sog‘lom oziq-ovqat muhitida to‘yimli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish va tananing o‘zlashtira olishini rag‘batlantirish:

- sog‘lom va muvozanatli ovqatlanishni (dietani) targ‘ib qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va mustahkamlash;
- oziq-ovqatlardan samarali foydalanish uchun ularni ishlab chiqarish muhitini yaxshilash

4-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashdagi barcha jarayonlarda barqarorlikka erishish:

- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari hamda ular bozorlarining tabiiy-texnogen ofatlar va iqlim o‘zgarishi xavflariga chidamliligini kuchaytirish;
- ishlab chiqarish quvvatlari va bozor aloqalarini aniq dastur va “yo‘l xaritalari” asosida tizimli tashkil etish;
- favqulodda vaziyatlarda oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlash imkoniyatlarini oshirish.

2-rasm. “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi”da belgilangan maqsad va vazifalar²¹.

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 16 февралдаги ПФ-36-сон “Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. - <https://lex.uz/docs/6802687>

Unumdor yer va suv resurslarini boshqarish iqtisodiy, texnik, tashkiliy, xo‘jalik va qonunchilik bilan uzviy bog‘liq. Yerdan samarali foydalanishni ta‘minlash va yer resurslarini boshqarishda quyidagi tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni hisobga olish zarur:

yer resurslarini boshqarishda iqtisodiy masalalarni yechish bilan birga davlat siyosatidan kelib chiqib, ekologik va texnologik nuqtayi nazardan yondashish;


yer va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini kompleks hal etish, asosiy bo‘g‘inlardagi ayrim bog‘liklarning uzilishi tizimda muammoli holat chiqarishini hisobga olish;

mamlakat hududi tabiiy iqlim mintaqalari bo‘yicha farqlanishidan kelib chiqib, ekinlarni joylashtirish va yer resurslaridan samarali foydalanishda ularning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish;

yer resurslarini boshqarish jarayonida Davlat yer kadastrini yuritish va bu asosda yer resurslarining qiymatini prognozlash hamda rejalashtirishga, kerakli loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga e‘tibor qaratish.

Bugun qishloq xo‘jaligi va agrar sohaning taraqqiyoti suv va suv resurslarini oqilona boshqarish, tizimlashtirish, muammolarni innovatsion texnologiyalar asosida yechish, sohani diversifikatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Raqamli va ilmiy jihatdan asoslangan tejamkor texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib suv muammosini hal qilib bo‘lmaydi.

Ayni paytda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida foydalanilayotgan suv hajmining 20 foizi ichki, 80 foizi esa tashqi manbalardan keladi va mamlakat suv resurslarining 86 foizi qishloq xo‘jaligiga yo‘naltiriladi. Mazkur suv resurslarining o‘rtacha yillik sarfi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni quyidagi rasm orqali ko‘rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekistonda o‘rtacha yillik suv sarfi, mlrd. kub metr²².

3-rasmdagi diagramma ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, suv taqchilligi muammosi bugun paydo bo‘lib qolgani yo‘q. O‘tgan asrning 80-yillarida O‘zbekistonda o‘rtacha yillik suv sarfi 64 mlrd. kub metr bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda - 51,2 mlrd. kub metr, 2020-yilda - 43,3 mlrd. kub metr, 2021-yilda - 43,2 mlrd. kub

²² Муаллиф томонидан Ўзбекистон республикаси Сув хўжалиги вазирлиги маълумотлари асосида ишлаб чиқилган.

metr, 2022-yilda - 43,2 mlrd. kub metr, 2023-yilda - 54,5 mlrd. kub metrni tashkil qilgan.

Ekspertlarning suv resurslari tejamkorlik bilan boshqarilmasa, 2050-yillarga borib mintaqadagi boshqa davlatlar qatori O‘zbekiston uchun ham suv taqchilligi yuzaga kelishi mumkin, degan taxminlari mavjud. Agar bugundan suv resurslari taqsimoti to‘g‘ri shakllantirib borilmasa, suv yetishmovchiligi oqibatida qishloq xo‘jaligi, agrar soha va aholi turmush darajasi yomonlashuvi, eksport kamayishi, inflyatsiya oshishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishi kabi muammolar vujudga kelishi ehtimoli yuqori.

O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga borib suv tejoychi kam xarajat etuvchi texnologiyalarni joriy etish har ming gektarga 2000 tani va tomchilatib sug‘orish tizimini joriy esa 600 tani tashkil etadi. Natijada 10 mlrd. m³ suv tejaladi hamda 370 ming/ga yer maydonini suv ta‘minoti yaxshilanadi (4-jadval).

4-jadval

2019-2030-yillarda suv tejoychi texnologiyalari va tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish(dona)²³

Yillar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2025-y.*	2030-y.*
Suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish ming/ga	175	250	433	1000	2000
Tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish ming/ga	77,4	125	230	300	600

Izoh: * - prognoz ko‘rsatkichlari.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tomchilatib sug‘orishga qaraganda suv tejoychi texnologiyalardan foydalanish suv kamayishi faqat dehqonchilikda qiyinchilik tug‘dirar ekan, deb o‘ylash xato bo‘ladi. Bu muammo bevosita mintaqa gidrologiyasi va atrof-muhit landshaftlariga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni yashil maydonlar kamayadi. Yer osti suvlari pastga tushib ketib, yer osti quduqlaridan suv olishda ham muammolar vujudga keladi. Yerlar qurib, suvsizlanib ketishi natijasida avval 10 kub suv bilan qoniqqan dalalar endi 15 kub suv bilan to‘yinadi.

Bilvosita oqibatlari esa nihoyatda ko‘p: chorvachilik, oziq-ovqat bilan ta‘minlash, qayta ishlash sanoati, to‘qimachilik sanoati va boshqa sohalar ham tanazzulga yuz tutishi mumkin. Bu esa pirovardida mamlakat hamda fuqarolar daromadlarining kamayishi va kambag‘allik sari eng yaqin yo‘l hisoblanadi.

Muallif fikricha, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama hamkorlikni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, suvdan tejamli foydalanishda bu boradagi iqtisodiy va ekologik nazariyalarga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ulardan asosiylarining qisqacha mazmunini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (5-jadval).

²³ Ўзбекистон Республикаси сув хўжалиги вазирлиги сайти маълумотлари. - <https://water.gov.uz/uz/statistica>.

Suvdan tejamli foydalanishda qo‘llash mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ekologik nazariyalar²⁴

Nazariyalar	Qisqacha mazmuni
Nisbiy ustunlik nazariyasi (Comparative Advantage Theory)	Mamlakatlar o‘zlariga nisbatan samaraliroq ishlab chiqaradigan mahsulotlarga ixtisoslashib, boshqa mahsulotlarni chetdan olish orqali umumiy samaradorlikni oshirishlari mumkin. Agar qo‘shni mamlakatlar suvni samaraliroq ishlatib, ko‘proq hosil olish imkoniga ega bo‘lsalar, suv ko‘p talab qiladigan ekinlarni u yerda yetishtirib, O‘zbekistonga import qilish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.
Virtual suv nazariyasi (Virtual Water Theory)	Virtual suv konsepsiyasiga ko‘ra, mahsulotlar bilan birga ularni yetishtirishda ishlatilgan suv ham “eksport” yoki “import” qilinadi. Agar suv resurslari yetishmovchiligi bor bo‘lgan mamlakatlarda suvni tejash maqsadida suvni ko‘p talab qiladigan ekinlardan voz kechib, ularni qo‘shni davlatlarda yetishtirish orqali suv tejash mumkin.
Xalqaro savdo nazariyalari (International Trade Theories)	Xalqaro savdo nazariyalariga ko‘ra, mamlakatlar o‘zlarining nisbatiy afzalliklariga asosan mahsulotlar ishlab chiqarishlari va ularni savdo qilishlari mumkin. Bu resurslarni samaraliroq taqsimlashga va umumiy iqtisodiy farovonlikni oshirishga yordam beradi.
Ekologik iqtisodiyot nazariyasi (Ecological Economics Theory)	Ekologik iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, tabiiy resurslarni samarali va barqaror ishlatish muhimdir. Suvni tejash uchun suvni ko‘p talab qiladigan ekinlarni boshqa, suv resurslari yetarli bo‘lgan mamlakatlarda yetishtirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash mumkin.

Bu nazariyalar suv resurslarini samaraliroq ishlatish va global iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhimdir. Qo‘shni mamlakatlarda suv ko‘p talab qiladigan ekinlarni yetishtirib, ularning hosilini olish orqali ham suv resurslarini tejash, ham iqtisodiy manfaatlar olish mumkin. Chunki oziq-ovqat sifatida iste‘mol qilinuvchi asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha yillik suv sarfi me‘yorlari va energiya qiymatlari bir-biridan farq qiladi (6-jadval).

O‘zbekistondagi asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha yillik suv sarfi me‘yorlari va energiya qiymatlari²⁵

Ekin turlari	O‘rtacha suv sarfi (litr/kg)	Kaloriya (kkal/kg)	Iste‘mol qiymati (AQSh doll./kg)	1 litr suvga nisbatan kaloriya (kkal/litr)
Bug‘doy	1800	3400	0,2	1,89
Guruch	4500	3600	0,5	0,80
Kartoshka	300	770	0,1	2,57
Pomidor	250	180	0,5	0,72
Sabzi	200	410	0,3	2,05
Qovun	150	290	0,2	1,93
Piyoz	400	400	0,2	1,00
Nok	900	570	1,5	0,63

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, agar 1 kg guruch mahsulotini yetishtirish uchun o‘rtacha 4500 litr suv sarflanib, buning natijasida 3600 kkal ozuqa quvvati hamda 0,5 doll. iste‘mol qiymati yaratilishi mumkin. Bir litr suvning sarflanish

²⁴ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

²⁵ Quyidagi manba ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan:
<https://www.waterfootprint.org/resources/interactive-tools/product-gallery/>

samarasi esa 0,8 kkal bilan o'lchanadi. Aksincha, qovun mahsulotining bu boradagi ko'rsatkichlari tegishli ravishda 150 litr (suv sarfi), 290 kkal (ozuqa quvvati), 0,2 doll./kg (iste'mol qiymati), 1,93 kkal/litr (suvning sarflanish samarasi)ni tashkil etadi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston suv resurslari cheklanganligini inobatga olib, suvni nisbatan ko'p talab qiluvchi ekinlar va oziq-ovqat mahsulotlarini hamkor qo'shni davlatlarda yetishtirish (bunda O'zbekistondagi ishchi kuchidan foydalangan holda) hamda uning xomashyo va hosilini o'zaro manfaatli kelishuv asosida sotib olish (yoki boshqa mahsulotga ayirboshlab) bu boradagi istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida oziq-ovqat klasterlarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning o'rta va uzoq muddatli davrga mo'ljallangan muqobil ssenariyli prognozlarini ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda 2017-yilda boshlangan yangi iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, intensiv texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni keng joriy qilish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, klaster tizimini va barcha yo'nalishlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish yo'nalishlarida qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish boshlandi. Shu bilan birga:

meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish parametrlari hamda “daladan do'kongacha” bo'lgan uzluksiz yetkazib berish zanjirini yaratishni rag'batlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

iste'mol tovarlari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taqchillikni oldindan aniqlash choralari belgilandi;

qishloq xo'jaligi sohasida klaster va kooperatsiya munosabatlari bilan bog'liq barcha normalarni yagona qonun hujjatiga birlashtirildi va hujjatlar unifikatsiya qilindi;

fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zaro kooperatsiya munosabatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratildi;

oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, realizatsiya qiluvchilar, iste'molchilar va davlat nazorat organlarining huquqlari hamda majburiyatlari aniq belgilandi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlar natijasida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan klasterlar soni, klaster va fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlari hajmini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (7-jadval).

O‘zbekistonda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan klasterlar soni²⁶

Hududlar nomi	Jami mavjud klasterlar				
	soni	yer maydoni (ga)	klasterda (ga)	shundan	
				soni	maydoni (ga)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	59	129 659	16 309	4 566	113 349
Andijon	48	129 545	23 031	5 695	106 514
Buxoro	39	163 408	11 426	6 189	151 982
Jizzax	33	162 324	16 353	5 396	145 972
Qashqadaryo	75	282 595	36 890	13 273	245 705
Navoiy	22	78 236	2 552	9 599	75 684
Namangan	40	157 797	49 816	4 991	107 980
Samarqand	42	189 537	15 001	8 800	174 536
Surxondaryo	43	161 700	34 660	4 205	127 040
Sirdaryo	30	160 761	42 266	3 906	118 495
Toshkent	52	203 007	56 787	5 638	146 220
Farg‘ona	77	199 716	11 384	6 979	188 332
Xorazm	28	110 267	4 996	3 002	105 271
Respublika bo‘yicha	588	2 128 552	321 471	82 239	1 807 081

7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan klasterlar soni 2024-yilda 588 tani tashkil etmoqda. Klasterlarga birlashtirilgan yer maydonlari 2128552 gektarni tashkil etib, shundan klasterlarda 321471 gektar bo‘lsa, fermer xo‘jaliklarda 1807081 gektarni tashkil etmoqda.

Tadqiqot ishida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatuvchi oziq-ovqat eksporti salohiyatini oshirishda Global G.A.P xalqaro andozasidan foydalanish va eksportini oshirish yo‘llari tadqiqiga alohida e’tibor qaratilgan. Hozirgi kunda GLOBAL G.A.P standartlari 200000 dan ortiq ishlab chiqaruvchilarni qamrab olgan. Kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish hamda ijtimoiy va ekologik jihatdan ongli qishloq xo‘jaligi amaliyotlari orqali har bir avlodning xavfsiz, mas’uliyatli tarzda yetishtirilgan oziq-ovqatga bo‘lgan huquqini himoya qilish maqsadini amalga oshirish uchun kafolatli yechimlari ta’minlanmoqda.

GLOBAL G.A.P standarti asosida sertifikatlangan ishlab chiqarish jarayonlari 2021-yilda jahon bozori uchun 2,5 million tonnadan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqardi, bu 2019-yilga nisbatan 23 foizga ko‘p²⁷.

Fikrimizcha, bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashda xalqaro bozorlarda tan olingan Global G.A.P, Organic, NACCP sifat standartlarini joriy etishni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy-me’yoriy asoslari shallantirilgan va takomillashtirib borilmoqda. Bunda xalqaro hamkorlik aloqalariga ham alohida urg‘u berilgan. Xususan, Yevropa ittifoqining

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йилдаги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.


²⁷ https://www.globalgap.org/uk_en/media-events/news/articles/GLOBALG.A.P.-at-Seafood-Expo-Global-2022

“GSP+” dasturi O‘zbekiston uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini ko‘paytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. “GSP+” qamrab olayotgan mahsulot liniyalarining uchdan ikki qismiga nisbatan boj tariflari to‘liq bekor qilinadi. Shuningdek, JST talablari asosida jahon bozoriga erkin kirib borish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo‘jaligi uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratiladi.

O‘zbekistonda 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 799 800 kishini tashkil etdi. Shundan: erkaklar soni 18 525 000 kishini, ayollar soni 18 274 800 kishini, shahar aholisi soni 18 768 500 kishini, qishloq aholisi soni 18 031 300 kishini tashkil etdi²⁸. Mehnatga layoqatli aholi soni esa 20 710 900 nafarni tashkil etib, bu o‘tgan yilga nisbatan 205 600 nafarga (20 505 300) ko‘p.

O‘zbekistonda 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha 82 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,8 kishiga ortgan (2023-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda 80,2 kishi to‘g‘ri kelgan). Hududlar bo‘yicha qaralganda, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 6787,5 kishi, Andijon viloyatida 789,4 kishi, Farg‘ona viloyatida 600,8 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati 9,7 kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 12 kishini tashkil etgan²⁹.

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun dastlab 2010-2023-yillarda O‘zbekistondagi aholi daromadlari hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotni ko‘rib chiqamiz (4-rasm).



4-rasm. O‘zbekistonda 2010-2023-yillarda aholi daromadlari hajmi³⁰.


Diagramma ma‘lumotlari O‘zbekistonda 2010-2023-yillarda aholi daromadlari ham muttasil oshib borganligi ko‘rsatadi. Mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash aholi sonining o‘sib borishi bilan unga mos ravishda asosiy turdagi

²⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/27/demographics>

²⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/27/demographics/>

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.


dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarining ham o‘shib borishini taqozo etadi (5-rasm).



5-rasm. O‘zbekistonda 2000-2023-yillarda asosiy turdagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi³¹.

5-rasmdagi diagramma ma’lumotlari asosida 2000-2023-yillarda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda asosiy turdagi (dehqonchilik va chorvachilik) oziq-ovqat mahsulotlari dinamikasi o‘shish tendentsiyasiga ega bo‘lgan.

Nazariy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ikkita yondashuv mavjud: mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta’minlanganligi hamda aholining oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish qobiliyatidir. Ikkinchi yondashuvning amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligi O‘zbekistonda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozor narxlari dinamikasini ham ko‘rib chiqishni taqozo etadi (6-rasm).



6-rasm. O‘zbekistonda 2019-2023-yillarda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozor narxlari dinamikasi³².

O‘zbekistonda 2019-2023-yillarda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozor narxlari dinamikasi deyarli barcha oziq-ovqat mahsulotlari bozor narxlari oshib borganligini ko‘rsatadi. Mazkur ilmiy ish doirasida mamlakat oziq-ovqat

³¹ Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

³² Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida qishloq xo'jaligida suv iste'molini ham yangi omil sifatida ekonometrik modelga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, o'zbekistonlik olim S.N.Axmedov suv resurslaridan samarali foydalanishni baholashda Diamond modelini taklif etib, o'z qarashlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini taqqoslama tahlilini amalga oshirgan bo'lsada, biroq uning ilmiy ishlarida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi prognozi amalga oshirilmagan³³.

“O'zsuvta'minot” kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 74,4 foizni tashkil etgan. 2026-yil oxirigacha bu ko'rsatkich 88,9 foizga yetishi rejalashtirilgan.

2023-2026-yillarda 1405 ta mahalla markazlashtirilgan suv ta'minoti bilan qamrab olish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 470 tasi xalqaro moliya institutlari hisobidan, 795 tasi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari bo'yicha, 28 tasi davlat ijtimoiy buyurtmalari hisobidan, 112 tasi esa mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida 2026-yil oxirigacha qo'shimcha 5,2 million kishi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanadi³⁴.

Modelni ishlab chiqishda 2019-2023-yillardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining yillik va oylik ma'lumotlardan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-saytidagi ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi. Hisob-kitoblar “Eviews” amaliy kompyuter dasturi yordamida amalga oshirildi. Buning uchun oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta'sir etuvchi ekzogen omillar tanlab olindi:

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (joriy narxlar), mln. so'm - LnY (erkli bog'lanuvchi);

qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiya (mlrd so'm) - $LnX1$ (erksiz bog'lanuvchi);

qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni (ming kishi) - $LnX2$ (erksiz bog'lanuvchi);

hududlarda olinayotgan yillik suv miqdorining hajmi (mln.kub.metr) - $LnX3$ (erksiz bog'lanuvchi);

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi (ming AQSh dollari) - $LnX4$ (erksiz bog'lanuvchi).

Ushbu omillarning o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi sababli logarifmlab olindi.

Darbin-watson testi (DW testi bilan) – o'rganilayotgan ketma-ketlik elementlarining birinchi tartibli avtokorrelyatsiyasini tekshirish uchun ishlatiladigan statistik testdir.

Avtokorrelyatsiya bo'lmaganda $DW = 2$, ijobiy avtokorrelyatsiya bilan DW

³³Axmedov S.N. Methodological aspects of increasing the efficiency of water management. Journal of International Finance and Accounting


³⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/08/water>

nolga, salbiy avtokorrelyatsiya bilan esa 4 ga intiladi:

$$\begin{cases} \rho_1 = 0 \Rightarrow DW = 2; \\ \rho_1 = 1 \Rightarrow DW = 0; \\ \rho_1 = -1 \Rightarrow DW = 4. \end{cases}$$

Amalda Darbin-watson testini qo'llash DW qiymatini ma'lum n kuzatishlar soni uchun d_L va d_U ning nazariy qiymatlari, k modelining mustaqil o'zgaruvchilari soni n va α ahamiyatlilik darajasi bilan solishtirishga asoslangan.

Darbin-watson test natijalariga ko'ra olingan regressiya tenglamalarida avtokorrelyatsiya mavjud emas. Quyidagi 7-rasmda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.



7-rasm. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2030-yilga qadar prognozi³⁵.

Demak, prognozga asosan optimistik senariyda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 2030-yilga kelib 622 029,5 mlrd. so'mga oshishiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, ekonometrik tahlillar asosida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiqi asosida agrar sohada faol investitsion siyosatni davom ettirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda oziq-ovqat mahsulotlari siyosati asosiy dastak sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

XULOSA

1. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda uning bir necha asrlik tarixga ega nazariy asoslarini o'rganish, oziq-ovqat xavfsizligi markazida bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish xususiyatlari va bosqichlari bo'yicha turlicha yondashuvlarni takomillashtirish orqali zamonaviy yo'nalishlarini ochib berish mazkur muammoni tadqiq etishning muhim ilmiy-uslubiy talablaridan hisoblanadi.

2. Tadqiqotning nazariy-uslubiy yondashuviga ko'ra "oziq-ovqat xavfsizligi" kategoriyasining iqtisodiy mazmunini aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta'minlash nuqtai-nazaridan takomillashtirishda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish zarurligi asoslangan.

3. Aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste'mol qilish imkoniga erishishda 22 ta nomdagi oziq-ovqat turlari bo'yicha 18-59 hamda 60 yoshdan yuqori erkaklar, 18-54 hamda 65 yoshdan yuqori, shuningdek, homilador va emizikli ayollar toifalari uchun belgilangan rasional ovqatlanish me'yorlariga amal qilingan holatda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning maqbul darajasiga erishish mumkinligi asoslangan.

4. AQSh, Kanada, Meksika singari yetakchi xorijiy mamlakatlarning 2014-2016, 2016-2018, 2018-2020 yillar bo'yicha davr oraliqlaridagi oziq-ovqat xavfsizligi darajasi o'zgarishining asosiy tendensiyalaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston qishloq xo'jaligini 2030 yilga qadar bosqichma-bosqich rivojlantirishda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi davlatning ta'sirchan agrar siyosati tamoyillari aniqlangan;

5. O'zbekistonda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirishda bu boradagi iqtisodiy va ekologik nazariyalarga tayanish orqali qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi ob'ektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama hamkorlikni davom ettirish maqsadga muvofiq.

6. O'zbekistonda suv resurslari taqsimoti to'g'ri shakllantirib borilmasa, suv yetishmovchiligi oqibatida qishloq xo'jaligi, agrar soha va aholi turmush darajasi yomonlashuvi, eksport kamayishi, inflyatsiya oshishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishi kabi muammolar vujudga kelishi ehtimoli yuqori.

7. Mamlakatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholiga yetkazishga mas'ul idora va tashkilotlar (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va h.k.), Sog'liqni saqlash vazirligi (jumladan, Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati) va uning hududiy boshqarmalari bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat va mahallaning o'zaro uyg'un,

faol va izchil faoliyati ta'minlanganda aholining rasional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari asosida muayyan davrdagi ehtiyoji va amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan aniqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish samaradorligi ortadi.

8. Klasterlar turli tarmoqlar yoki bir xil mahsulotni ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan holda, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, ta'minot zanjirini mustahkamlash, joylarda ish o'rinlari yaratish imkonini berib, ularning sonini oshirish orqali ijtimoiy resurslardan foydalanish, bilim almashish, infratuzilmani yaxshilash va oziq-ovqat sanoatida global trendlarga moslashishga erishish mumkin.

9. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda xalqaro bozorlarda tan olingan Global G.A.P, Organic, NACCP 2200 sifati standartlarini joriy etishni o'quv va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, texnik yordam va davlat ko'magini joriy etish, sertifikatlash jarayonini soddalashtirish, sertifikatlash jarayonini soddalashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun talablarga mos ravishda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali takomillashtirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi.

10. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeliga ko'ra optimistik ssenariyda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 2030 yilga kelib 622 029,5 mlrd.so'mga oshishiga olib kelishi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АХМЕДОВА НАФИСА АМИРДИН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
СТРАНЫ**

08.00.01 – Экономическая теория

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за №B2024.2.PhD/Iqt3953.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательного портала «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Топилдиев Сохибжон Рахимжонович**
доктор экономических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: **Гафуров Убайдулло Вахабович**
доктор экономических наук, профессор
Абулкосимов Хасан Пирназарович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Андижанский государственный университет**

Защита диссертации состоится 15 10 2024 года в 14⁰⁰ ч. на заседании научного совета DSc.03/30.01.2021.1.16.03 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 1571) (Адрес: 100003, г.Ташкент, 100003, ул. Ислама Каримова, 49.Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Автореферат диссертации разослан 30 09 2024 года.
(протокол реестра № 55 от 30 09 2024 года).



С.К.Худайкулов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Б.Д.Хажиев
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Н.А.Хашимова
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобальной интеграции и обострения процессов конкуренции в мире возрастает актуальность задачи обеспечения продовольственной безопасности, которая стоит перед всеми странами. ООН также отмечает, что настало время полностью изменить подход к выращиванию продуктов питания и их распределению. Ведь в идеале сельские, лесные и рыбные хозяйства не в состоянии полностью обеспечить всех продовольствием и создать для людей надлежащий источник дохода. Поэтому в данном случае важно обеспечить реализацию мероприятий по развитию сельского хозяйства, охране окружающей среды, поставкам сырья предприятиям пищевой промышленности. По данным ООН, “если в настоящее время 815 миллионов человек в мире голодают, то к 2050 году это число достигнет 2 миллиардов человек. Из них 12,9% проживают в развивающихся странах. 45% смертности среди детей в возрасте до пяти лет вызваны именно недоеданием”¹. Сложившаяся ситуация остается одним из актуальных вопросов регулирования потребления на основе установленных рационов в условиях нехватки продовольствия.

В условиях обострения проблемы обеспечения ресурсами ускоряющегося экономического развития в мире проводятся научные исследования, направленные на совершенствование теоретических основ обеспечения продовольственной безопасности. Рост мирового спроса на продовольствие и сельскохозяйственную продукцию, достойный растущих доходов населения планеты, увеличение численности населения, влияние изменений в питании, связанных с урбанизацией и высокими доходами, на продовольственную систему, повышение спроса на продовольствие, требующего относительно больших ресурсов, степень соответствия тенденций урожайности спросу, изменение требований к соблюдению норм, установленных к продовольственным рационам, “продовольственное уравнение” в нынешних сложных условиях, обеспечение продовольственной безопасности, поиск научно-теоретических решений по совершенствованию механизмов восстановления баланса между социальным равенством, потребительским спросом, экономической и экологической стабильностью являются одними из приоритетных направлений исследований в этой области.

Основной целью реформ по регулированию современных механизмов обеспечения продовольственной безопасности в Узбекистане является “увеличение доходов дехкан и фермеров как минимум в два раза с обеспечением ежегодного роста объемов сельского хозяйства не менее чем на 5 процентов за счет интенсивного развития сельского хозяйства и применения передовых достижений науки. В частности, специализация районов на выращивании конкретного вида продукции, Расширение масштаба

¹ JRC Science and Policy Reports <file:///C:/Users/user/Downloads/lbna27252enn.pdf>

государственной поддержки и внедрение новых механизмов страхования в сельском хозяйстве, повышение плодородия почвы и защита ее от деградации, Совершенствование системы оказания агроуслуг, основанных на передовых достижениях науки и инновациях, обеспечение агропромышленных предприятий сырьем и увеличение объемов производства в 1,5 раза”². С этой точки зрения необходимо совершенствование системы государственного управления в сфере, широкое внедрение рыночных отношений, укрепление правовой основы отношений между субъектами, осуществляющими выращивание, переработку и поставку сельскохозяйственной продукции потребителям, повышение конкурентоспособности за счет внедрения ресурсосберегающих технологий и обеспечения сельхозпроизводителей современной техникой, а также совершенствование экономических отношений в отрасли.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, установленных в указах Президента Республики Узбекистан УП-36 от 16 февраля 2024 года “О дополнительных мерах по обеспечению продовольственной безопасности в республике”, УП-158 от 11 сентября 2023 года “О Стратегии «Узбекистан – 2030»”, УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, УП-5853 от 23 октября 2019 года “Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы”, УП-5742 от 17 июня 2019 года “О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве”, Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-3680 от 26 апреля 2018 года “О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных земель”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Научно-теоретические основы обеспечения продовольственной безопасности и средства ее регулирования изучены в исследованиях таких зарубежных ученых, как Ж.Аддисон, Г.Беккер, А.Бриттайн, Л.Эммеридж, Д.Фридман, П.Самуэльсон, С.Брю, К.Макконнелл и другие³.

² Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”.

